



MEHNAT BOZORI SAMARADORLIGINI BAHOLASH UCHUN ASOSIY NAZARIY QOIDALAR VA AXBOROT MODELLARINI ISHLAB CHIQISH

Maxammadiev Maxsud Mardon o'g'li

Toshkent molya instituti tayanch-doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5753693>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20- Noyabr 2021

Ma'qullandi: 25- Noyabr 2021

Chop etildi: 30 - Noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Raqamli iqtisodiyot,
mehnat bozori, sof
iqtisodiy mexanizm, ishchi
kuchi, bozor evolyusiyasi

ANNOTATSIYA

Mehnat bozori samaradorligi tushunchasi ko'p jihatdan bozor iqtisodiyotining eng asosiy qonuni – talab va taklif qonunining amal qilishi doirasida talqin etilishiga, shu bilan birga, bu qonunning milliy iqtisodiyotda amal qilayotgan institutsional sohada qay darajada o'z aksini topishiga bog'liq bo'ladi. Iqtisodiyot, ma'lum davrlarda turli xil tartibga soluvchi mexanizmlar asosida boshqariladi, bu mexanizmlar mamlakatda kechayotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni belgilangan maqsad sari yo'naltirishi bilan bir qatorda mehnat bozoriga bilvosita ta'sir etadi.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixidan shu narsa ma'lumki, ihtiyoriy ijtimoi-iqtisodiy formatsiya davrlarida iqtisodiy qonunlar amal qiladi, va shu o'rinda aytish joizki, hozirgi davrda iqtisodiyotda keng ko'lamda rivojlanib borayotgan raqamli texnologiyalar hamda kommunikatsiya vositalari u yoki bu darajada barcha iqtisodiy qonunlarni, jumladan mehnat bozoridagi talab va taklif qonunini ishlash mexanizmlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot rivojlanib borayotgan bir davrda mehnat bozorini tahlil qilish, uni tartibga solish, va nihoyat bunday tartibga solishdan kutilayotgan **asosiy maqsadni** belgilash

hamda baholash muhim masala hisoblanadi.

Mehnat jarayoni bozor mexanizmi doirasida talqin etilishi uchun uning individual asosi – ishchi kuchi kategoriyasini ilmiy asosda ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Biz, ishchi kuchini tovar sifatida qarash nazariyasidan kelib chiqib, uni o'rganish uchun mehnat bozorining amal qilish mexanizmini chuqur tadqiq etish zarur deb hisoblaymiz. Bu muammo uzoq davrlardan buyon ilmiy muhokamada bo'lishiga qaramay, haligacha to'la o'z yechimini topmagan. Ayniqsa, iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar, axborotlarni qayta ishlash va ulardan iqtisodiy resurslar



sifatida foydalanish texnologiyalarining keng rivojlanib borishi sharoitida bu muammo turli qirralari bilan dolzarblashib bormoqda. Shu bilan birga, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning tahlili mehnat bozorining amal qilish mexanizmi doirasida olib borilishi kerak bo'ladi.

An'anaviy tarzda mehnat bozori faoliyati natijasida ish bilan band bo'lgan aholi va ishsizlar mavjudligi tan olinadi. Demak, mehnat bozorining mavjudligi ishsizlikni keltirib chiqaradi. Ishchi kuchi taklifi, unga bo'lgan talab, ishsizlik, ishchi kuchi bahosi, raqobat va bularning barchasini umumlashtiruvchi iqtisodiy manfaatdorlik mehnat bozorining ishlash jarayonini ifodalaydi.


Mehnat bozori samaradorligini aniqlash, uni baholash va makroiqtisodiy mexnizmlar asosida uning sifat hamda miqdor ko'rsatkichlarini oshirish uchun, avvalom bor, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, talab va taklif qonunining amal qilishi nuqtai nazaridan bu ko'rsatkichni tadqiq etish o'rinli bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilgan asosiy maqsad doirasida mehnat bozorini tadqiq etishga qaratilgan bizning nazariy-metodolgik yondashivumizning asosini quyidagi uchta jihat tashkil etadi:

1.Mehnat bozori ishlashining samaradorligini aniqlashda mehnat bozori tomonidan shakllanayotgan ishchi kuchiga bo'lgan talabning «samarali talab» shaklida bo'lish mezonlarini aniqlash va ularning amal qilish mexanizmlarini tadqiq etish hamda ularni tartibga solish yo'llarini ishlab chiqish;

2.Mehnat bozori ishlashi natijasida, albatta, yalpi mehnat resurslarining bandlik strukturasi shakllanadi, va bu strukturani «samarali struktura» shaklida namoyon bo'lish mezonlarini aniqlash va bu mezonlarni raqamli iqtisodiyot rivojlanishi sharoitida mehnat bozorining umumiy samaradorlik mezonlari tizimida o'rnini belgilash mexanizmlarini ishlab chiqish;

3.Mehnat bozori ishlashi natijasida shakllangan mehnat resurslarining bandlik darajasi «samarali bandlik darajasi» shaklida namoyon bo'lish mezonlarini aniqlash va bu mezonlarni raqamli iqtisodiyot rivojlanishi natijasida ishsizlikning ijtimoiy maqbul darajasini aniqlash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda bu mexanizmlar ta'sirida raqamli iqtisodiyotning keyingi rivojlanish bosqichlari uchun tegishli ishchi kuchi taklifini shakllantirish chora-tadbirlarini belgilash.

Bu qo'yilayotgan jihatlarni raqamli iqtisodiyot amal qilishi sharoitida mehnat bozori ishlashini tartibga solish mexanizmlarining asosiy tashkil etuvchilari, aniqrog'i, bu mexanizmning bosh qismlari (MBQ) sifatida qarash o'rinli bo'ladi. Keyingi mulohazalarimizda mehnat bozori samaradorligi talqini, uning mezonlari, baholash yo'llari va bu samaradorlikni milliy iqtisodiyot darajasida oshirish yo'llarini belgilash aynan MBQ doirasida amalga oshirilishini alohida ta'kidlab o'tamiz. Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot va mehnat bozori o'zaro rivojlanishining funksional-mantiqiy chizmasini belgilab olishimiz kerak bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Raqamli iqtisodiyotda mehnat bozori samaradorligini baholashning konseptual chizmasi (RIMBKS)

Iqtisodiy tafakkur nuqtai nazaridan qaralganda, mehnat bozori samaradorligi ikki turdagi omillar guruhi ta'sirida namoyon bo'lishi kerak. Birinchi guruh - ob'ektiv omillar. Ikkinchi guruh - institutsional omillar. Ob'ektiv omillar - bu shunday omillarki, ular ta'siri natijasida, aynan ta'siri natijasida mehnat bozori ob'ektiv mavjud bo'lish shartlari namoyon bo'ladi, ya'ni bu omillar mehnat bozorining "sof iqtisodiy mexanizm" (SIM) sifatida shakllanishining ob'ektiv zaruriy elementlari ekanligini e'tirof etish bilan tushuntiriladi. Boshqacha aytganda, ishchi kuchining shakllanishi birlamchi hayotiy ehtiyoj ekanligi e'tirof etilishi zarur, ya'ni ishchi kuchiga talab o'z-o'zidan shakllanishiga zaruriyat yo'q, balki ishchi

kuchining «qayta ishlab chiqilishi» zaruriyati unga bo'lgan talab shakllanishini taqazo etadi.

Bu bilan biz, mehnat bozorida asosiy iqtisodiy qonun - talab va taklif qonuni o'ziga hos jihatlar asosida amal qilishini qayd etmoqchimizki, uning (qonunning) bu jihatlari iqtisodiyotni institutsional tartibga solish usullari doirasida o'z ifodasini topadi. Bu masala umumiy mehnat iqtisodiyotining predmeti deb qaralishi lozim, va shuning uchun, biz buni, chuqur tahlil etishga kirishini lozim deb hisoblamaymiz. Umuman olganda, mehnat bozori samaradorligini yuqorida qayd etgan tarzda ob'ektiv omillar asosida mantiqiy birlik deb qarashimiz (samaradorlikni) shuni angalatadiki, bunday samaradorlik,



mehnat bozorining evolyusion tarzda shakllangan ichki tabiatiga, xususiyatlariga hamda iqtisodiyotda boshqa mavjud bo'lgan bozorlar bilan o'zaro munosabatlarsiz uning ishlashi mumkin emasligiga asoslangan samaradorlikdir.

Mehnat bozori ishlashining institutsional omillar ta'siridagi samaradorligining namoyon bo'lishi esa, mehnat bozorini SIM shaklida ishlashiga qo'yilayotgan ma'lum ma'nodagi, shu bilan birga, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar rivojlanganlik darajasiga asosan jamiyat va iqtisodiyotni tartibga solish bo'yicha belgilangan tartib va qoidalarning qonuniylashtirilishi bilan bog'liq jarayonlardagi ishlatiladigan iqtisodiy tafakkur mahsuliga mos, mehnat bozorining «majburiy» tartibga solinishini ifodalaydigan omillar ta'sirda kelib chiqadigan samaradorlik deb tushunish kerak bo'ladi. Bunda, aynan samaradorlikning asl iqtisodiy mantig'i namoyon bo'ladiki, institutsional tartibga solishni jamiyat va davlat o'z oldiga maqsad qilib qo'yganligi bois, sarf-harajatlar va undan kutilayotgan maqsad bo'lishini taqazo etadi. Demak, maqsad (kutilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy natija) va sarf-xarajatlar mavjud, ularning o'zaro sifat, miqdor hamda

qiymat munosabatlari samaradorlikni belgilashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Biz, raqamli iqtisodiyotda mehnat bozori ishlashining ahamiyatli tomonlarini ko'rsatish hamda bunday iqtisodiyotda mehnat bozori samaradorligini konseptual jihatdan ko'rsatish uchun umumiy chizmada shartli ravishda alohida «Ishchi kuchiga talab» va «Ishchi kuchi taklifi» bo'limlarini (chizmada * va ** lar bilan belgilangan) keltirildi.

Mehnat bozori ishlashining samaradorligini tahlil etish va ular natijalariga ko'ra tegishli institutsional tartibga solish jarayonlari qanday iqtisodiy mohiyatga ega bo'lishi kerakligini, bunday jaryonlar mehnat bozori samaradorligining ob'ektiv omillariga qay tarzda ta'sir etishini va bular qanday ko'rsatkichlarda namoyon bo'lishini aniqlash o'ta muhim vazifa hisoblanadi. Chunki, bu ob'ektiv omillarning iqtisodiy tabiati juda ko'p ijtmioiy, demografik hamda turli xalq vakillarining turmush tarzi bilan uzviy bog'langanki, bunday bog'liklikni turli iqtisodiy nazariyalar asosida talqin etishga to'g'ri keladi, va o'z navbatida turli hil yondashuvlar mavjud bo'lishini keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxammadiev M., Ro'ziev A. Methodological problems of labor market evaluation in the Digital economy International journal of psychosocial rehabilitation, vol. 24, Issue 05, 2020 Issn : 1475-7192
2. Maxammadiev M., Abduvoxidov A. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. № 6, dekabr, 2020 yil. ISSN: 2181-1016
3. Maxammadiev M. Methodology for creating a database to assess the efficiency of the labor market in the digital economy. Journal of innovations in economy. 2021. Vol. 4, Issue 4. pp.33-40.
4. Maxammadiev M., Ro'ziev A. O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligining elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturining rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomasi. № DGU 08071 24.04.2020 y.



5. Аврамова Ye.M. Работодатели и выпускники вузов на рынке труда: взаимные ожидания / Е.М.Авраамова, Ю.Б.Верпаховская // Социол. исслед. - 2006. - N 4. - С.37-46.
6. Аврамова Е.М. Рынок труда и система образования: трудности перевода сигналов // Обществ. науки и современность. - 2011. - N 3. - С.51-61.
7. Акаев А., Сарыгулов А., Соколов В. О динамической оптимизации роста ВВП путём изменения уровня неравенства доходов // Журнал Экономическая политика. 2017. Т. 12. № 6. С. 8-23.
8. Белоусов Д. Р. Долгосрочное прогнозирование социально-экономического и научно-технологического развития России. Вып. 1: Методология. М. : МАКС Пресс, 2012.
9. Антипов А.Г. Проблемы взаимодействия вузов и работодателей на рынке труда // Alma mater = Вестн. высш. школы. - 2012. - N 4. - С.16-20.
10. Ахапкин Н.Ю., Волкова Н.Н., Иванов А.Е. Развитие цифровой экономики и перспективы трансформации российского рынка труда // Вестник ИЭ РАН. – 2018. – №5.